

**BOSHLANG’ICH SINF DARSLIKLARIDAGI ZAMONAVIYLIK  
BOLALAR ONGINING RIVOJIGA TA’SIRI**

***Qurbanov G‘iyosbek Jumayevich***  
*Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani 18-maktab*

**Annotatsiya:** Ta’lim tarbiya tizimining bugungi kundagi vazifasi o’sib-ulg’ayib kelayotgan yoshlami vatanparvar, zamonaviy bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirgan, komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Bu jarayonda o’qituvchi va zamonaviy o’quv darsliklarining roli beqiyosdir.

**Kalit so’zlar:** Ta’lim tarbiya,zamonaviy o’quv darsliklari, ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya, AKT.

**Аннотация:** задача образовательно-воспитательной системы сегодня состоит в том, чтобы воспитать подрастающее поколение молодых патриотов, овладевших современными знаниями, умениями и навыками, стремящихся к совершенству. Роль учителя и современных учебных пособий в этом процессе неоценима.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, современные учебные пособия, прогрессивные педагогические и информационно-коммуникационные, АКТ.

**Abstract:** the task of the educational system today is to educate the younger generation of young patriots who have mastered modern knowledge, skills and striving for excellence. The role of the teacher and modern textbooks in this process is invaluable.

**Keywords:** education, upbringing, modern textbooks, progressive pedagogical and information and communication, ACT

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o’qituvchilarining darslarga ijodiy yondashishini ta’minalash, ular faoliyatiga ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o’quvchilarining dastlabki egallaydigan bilimlarning poydevori mustahkam bo’lishi, barcha fanlarni o’zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelinmoqda.

Shuningdek, ta’lim tizimida ilg’or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish, xalq ta’limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag’ bilan ta’minalashning samaradorligini oshirish, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo’shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Olib borilayotgan bu islohotlar o'qituvchilar va o'quvchilar oldiga katta talablar qo'yemoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliligin oshirish hamda maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlarining tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarning turli bilim va ko'nikmalarini egallab olishlaridir. Bugungi kunda ta'lism jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimedya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman » deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarga ko'ra inson ongi ma'lumotlarning 90% ni ko'rish, 9% ni eshitish, 1% ni esa his qilish orqali qabul qilar ekan. Bundan kelib chiqqan holda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi.

O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi. Bu orqali fanga bo'lган qiziqish uyg'onib, o'z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash, mavzuni o'rganishda o'zi uchun qulay bolgan tezlik va o'zlashtirish darajasini tanlash imkoniyatini beradi.

1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovozli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo'llanma bo'yicha ta'lim jarayonini differensiatsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o'qitish bo'yicha tematik rejalashtirishni ishlab chiqishda rejalashtirishga tegishli elektron mavzular va bo'limlarni kiritish mumkin. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal individual va guruhli ishslash uchun kompyuterni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lган dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim.

Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishidagisidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib,

har bir o'quvchi bilan shug'ullanish mumkin. AKTdan foydalanish yillari davomida 1-sinfdan 3-sinfgacha matematika, badiiy o'qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarur. Ular bajarib bo'lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyutering o'zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi.

Ona tili bo'yicha o'rganiladigan so'z leksik mazmunini talqin qilishda va birliklarni turlarga ajratishda o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'diradi. Bular: antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali o'quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi, so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosini topishga, sinonimlarni to'g'ri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni farq qilishga o'rgatadi. Antonimlar bilan ishslashga bag'ishlangan «Teskari o'yin» testidan foydalanish o'quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta'sir etadi.

**Adabiyotlar:**

1. Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi (kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma) - T.: "Ilm- Ziyo", 2003,
2. Jumayev M.E., Matematika o'qitish metodikasidan praktikum"- Toshkent: O'qituvchi, 2004,
3. Bikbayeva N.U, Yangabayeva E, K.Girfanova "Kichik yoshdag'i maktab o'quvchilarini boshlang'ich matematik ta'limning Davlat ta'lim standartlari asosida o'qitish" :- 2008, "Turon-Iqbol",
4. Karima Qosimova Safo Matchonov, Xolida G'ulom ova, Sharofat Yo'ldosheva "Ona tili o'qitish metodikasi"-Toshkent.2009.